



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



AHOLIGA UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SIFATINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Boboqulov Sanjar Bahromqulovich

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КАЧЕСТВА ПРЕДОСТАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНО- КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ НАСЕЛЕНИЮ

Бобокулов Санжар Бахромкулович

METHODS FOR ASSESSING AND IMPROVING THE QUALITY OF HOUSING AND COMMUNAL SERVICES PROVIDED TO THE POPULATION

Bobokulov Sanjar Bahromkulovich

Received: February 3, 2026 Revised: February 6, 2026 Accepted: February 9, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini baholash va uni takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda uy-joy kommunal xizmatlarining elektr energiyasi, ichimlik suvi, gaz, issiqlik ta'minoti hamda chiqindilarni boshqarish kabi asosiy yo'nalishlari bo'yicha 2020–2024-yillardagi statistik ko'rsatkichlar asosida xizmatlar sifati dinamikasi o'rganilgan. Texnik-iqtisodiy, institutsional va raqamli monitoring usullari orqali xizmatlar uzluksizligi, qamrov darajasi, avariya holatlari va aholi murojaatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tashkiliy-boshqaruv, texnologik-innovatsion, iqtisodiy-moliyaviy va normativ-huquqiy takomillashtirish usullari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalari uy-joy kommunal xizmatlar sifatini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, energiya tejamkorlikni kuchaytirish, boshqaruv shaffofligini ta'minlash hamda investitsion faollikni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Mazkur xulosalar hududiy rivojlanish, ijtimoiy farovonlik va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: uy-joy kommunal xizmatlari, xizmatlar sifati, baholash ko'rsatkichlari, kommunal infratuzilma, raqamli monitoring, energiya tejamkorlik, davlat-xususiy sheriklik, institutsional boshqaruv, ekologik barqarorlik, ijtimoiy farovonlik.

Аннотация: В данной статье на основе комплексного подхода проанализированы вопросы оценки и совершенствования качества предоставления жилищно-коммунальных услуг населению. В ходе исследования на основе статистических показателей за 2020–2024 годы изучена динамика качества услуг по основным направлениям жилищно-коммунального хозяйства, таким как электроснабжение, питьевое водоснабжение, газоснабжение, теплоснабжение и управление отходами. С использованием технико-экономических, институциональных и цифровых методов мониторинга проанализированы показатели непрерывности услуг, уровень охвата, аварийные ситуации и обращения населения. Также систематизированы организационно-управленческие, технологико-инновационные, экономико-финансовые и нормативно-правовые методы совершенствования. Результаты исследования показывают, что внедрение цифровых технологий, усиление энергоэффективности, обеспечение прозрачности управления и стимулирование инвестиционной активности имеют ключевое значение для повышения качества жилищно-коммунальных услуг. Полученные выводы имеют практическое значение для достижения целей регионального развития, социального благополучия и устойчивого развития.

Ключевые слова: жилищно-коммунальные услуги, качество услуг, показатели оценки, коммунальная инфраструктура, цифровой мониторинг, энергоэффективность, государственно-частное партнерство, институциональное управление, экологическая устойчивость, социальное благополучие.

Abstract: This article analyzes the issues of assessing and improving the quality of housing and communal services provided to the population based on a comprehensive approach. The study examines the dynamics of service



quality in key areas of housing and communal services, including electricity supply, drinking water supply, gas supply, heat supply, and waste management, using statistical data for the period 2020–2024. Through technical-economic, institutional, and digital monitoring methods, indicators such as service continuity, coverage level, emergency incidents, and public complaints are analyzed. In addition, organizational-managerial, technological-innovative, economic-financial, and regulatory-legal methods of improvement are systematized. The research results demonstrate that the implementation of digital technologies, strengthening energy efficiency, ensuring management transparency, and stimulating investment activity play a crucial role in improving the quality of housing and communal services. These conclusions have practical significance for achieving regional development goals, enhancing social welfare, and ensuring sustainable development.

Keywords: housing and communal services, service quality, assessment indicators, communal infrastructure, digital monitoring, energy efficiency, public-private partnership, institutional governance, environmental sustainability, social welfare.

■ KIRISH

Uy-joy kommunal xizmatlari sifatini baholash va takomillashtirish masalasi global miqyosda barqaror rivojlanish, urbanizatsiya jarayonlari va aholi farovonligini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Xalqaro darajada suv ta'minoti, kanalizatsiya, issiqlik va elektr energiyasi, chiqindilarni boshqarish kabi asosiy kommunal xizmatlarning uzluksizligi, ishonchligi va iqtisodiy samaradorligi BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, SDG 6 (Toza suv va sanitariya), SDG 11 (Barqaror shaharlar va jamoalar) va SDG 12 (Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish) doirasida ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi[1]. Raqamli transformatsiya, energiya samaradorligi va xizmatlar sifati monitoringi bo'yicha ilg'or yondashuvlar kommunal sektorning institutsional barqarorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mamlakat miqyosida esa uy-joy kommunal xizmat sifati aholining kundalik hayot sifati, ijtimoiy barqarorlik va hududiy rivojlanish darajasini belgilovchi muhim omildir. Aholi sonining o'sishi, shaharlarning kengayishi, infratuzilmaning eskirishi va resurslardan foydalanish samaradorligiga qo'yilayotgan talablarning ortishi kommunal xizmatlar sifatini tizimli baholash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Shu bois mazkur maqolada aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari hamda ularni takomillashtirish yo'llari kompleks yondashuv asosida yoritiladi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzuga oid ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning adabiyotlar tahlil qilindi. Xususan, T.N.Nerovnja va N.T.Obojmov "Possible approaches to improvement of institutional tools of the quality management system in the sphere of housing and communal services"[2] nomli maqolada uy-joy kommunal xizmatlari sifatini monitoring qilishning asosiy mezonlari va tizimini o'rganilgan. Tadqiqot davomida uy-joy-kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini shakllantiruvchi asosiy omillar, xususan, uy-joy sifati va uning eskirish darajasi, uy-joy-kommunal xizmatlarni ta'mirlash jarayonida ishlatiladigan materiallarning sifati, xodimlarning malakasi aniqlangan. Shu bilan birga, E.Agapitova, G.Chahkiev va V.Gerasimovlarning "The factors to assess the quality of management of housing and communal services"[3] nomli maqolasida esa Rossiya Federatsiyasi yirik shaharlarining uy-joy-kommunal xizmatlarini boshqarish sifatini oshirish bo'yicha g'oyalari ochib berilgan. Olimlar yirik

shaharlarda yuzaga keladigan muammolarni ehtiyoj bilan belgilaydi hamda ushbu muammoning echimi ikki komponentga bo'ladi: birinchisi - ehtiyojlarning o'zini aniqlash, ikkinchisi - ularni qondirish yo'llarini aniqlash. Biroq olimlarning komponentlari Rossiya bozorlarini davlat tomonidan tartibga solish chora tadbirlariga zid keladi.

O'zbekiston Respublikasida uy-joy muammosining asosiy tarkibiy qismlari, tabiatan murakkab bo'lgan uy-joy fondining muammoli vaziyatlari aniqlangan. "O'zbekistonda davlat uy-joy fondining xususiyashtirilishi natijasida uning amaldagi boshqaruv tizimi, asosan, davlat hokimiyati organlari tomonidan ma'muriy usulda tashkil etilishi mulkdorlarda uy-joy mulkdorlari shirkati o'zlarining manfaatli tashkiloti emas, balki yangi nom ostidagi sobiq "Uy-joy ekspluatatsiya idorasi" degan qarashga olib keldi"[4]. "Uy-joy boshqaruvi eng konservativ yo'nalishlardan biridir, chunki uy-joyning ijtimoiy ahamiyati yuqoriligi va uning arzonligini ta'minlash zarurati tufayli narxlarini davlat tomonidan tartibga solish ko'p yillar davomida ma'muriy-rejalashtirilgan iqtisodiyotda mavjud edi, lekin bozor munosabatlarining rivojlanishiga va biznesni jalb qilishga yordam bermagan"[5]. E.V.Sultanovning fikriga ko'ra "Uy-joy" tushunchasi "uy-joy fondi" va "turar-joy" tushunchalari bilan bevosita bog'liq[6]. T.A.Xasanovning bu borada "Uy-joy kommunal xo'jaligining eng muhim xususiyati uning yuqori ijtimoiy ahamiyati, aholining barcha qatlamlarining hayot sifati va jamiyatdagi ijtimoiy iqlim uning samarali ishlashiga bog'liq." – deb ta'rif bergan [7]. D.A.Berdiyeva "Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish"[8] nomli maqolasida uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish haqida yoritilgan bo'lib, unda uy-joy fondi turlarining tasnifi keltirilgan.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini baholash va takomillashtirish masalalarini o'rganishda tizimli va kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy tahlil va sintez, taqqoslama tahlil, statistik kuzatuv hamda dinamik qatorlar usullaridan foydalanildi. 2020–2024-yillar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar asosida elektr, suv, gaz va issiqlik ta'minoti ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Shuningdek, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar, institutsional baholash hamda raqamli monitoring natijalari asosida xizmatlar sifati integral baholandi. Olingan natijalar umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish usullari orqali tahlil qilinib, uy-joy kommunal



xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Uy-joy kommunal xizmatlar sifatini baholash ko'p mezonli va ko'p darajali yondashuvni talab etadi. Birinchi navbatda, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi qo'llanilib, xizmatlarning uzluksizligi, avariya chastotasi, yo'qotishlar darajasi, energiya va suv sarfining me'yorlarga mosligi aniqlanadi. Ikkinchi yo'nalish sifatida institutsional baholash usullari orqali boshqaruv tuzilmalari, tartibga solish mexanizmlari va moliyalashtirish manbalari samaradorligi tahlil qilinadi. Uchinchi yo'nalishda esa xizmat ko'rsatish jarayonlarining raqamlashtirilgan monitoringi va ma'lumotlar tahlili asosida real vaqt rejimida sifat ko'rsatkichlarini baholash amalga oshiriladi.

Shuningdek, integrallashgan indekslar yordamida hududlar kesimida xizmat sifati solishtirma tahlil qilinadi. Normativ-huquqiy moslik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat mezonlari ham baholash tizimining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Mazkur usullar majmui xizmatlar sifatini ob'ektiv baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi. Taklif etilgan baholash va takomillashtirish usullarini tizimli qo'llash Uy-joy kommunal xizmatlarda xizmatlar uzluksizligi va ishonchligini oshirishga, resurslar yo'qotilishini kamaytirishga hamda boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga olib keladi. Integrallashgan baholash tizimi hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni aniqlash va maqsadli choralarni belgilash imkonini beradi. Raqamli monitoring va ma'lumotlar tahlili asosida qabul qilingan qarorlar tezkorlik va aniqlikni ta'minlaydi.

1-jadval

Aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini baholash ko'rsatkichlari (2020–2024-yillar)[9]

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Aholi jon boshiga abonentlar tomonidan elektr energiya iste'moli, kVt/soat	1572,8	1611,6	1658,1	1725,7	1779,6
Uy-joy sektorida elektr energiya ta'minoti hajmi, mln kVt/soat	15549,5	15461,8	17470,8	17839,5	16293,1
Aholi jon boshiga ichimlik suvi iste'moli, kub metr	154,2	156,8	158,5	160,9	162,3
Ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi ulushi, %	69,7	71,4	73,6	75,8	77,2
Uy-joy fondida issiqlik energiyasi bilan ta'minlangan xonadonlar ulushi, %	58,3	59,6	61,8	63,5	65,1
Uy-joy sektorida gaz ta'minoti bilan qamrov darajasi, %	84,5	85,9	87,2	88,6	89,8
Aholi jon boshiga tabiiy gaz iste'moli, kub metr	431,6	445,2	452,7	468,9	471,4
Maishiy chiqindilarni yig'ish bilan qamrov darajasi, %	72,1	74,8	77,3	80,5	82,9
Uy-joy kommunal xizmatlarida avariya holatlari soni, mingta	12,4	11,8	10,9	9,7	8,9
Kommunal xizmatlar bo'yicha aholi murojaatlari soni, mingta	186,3	174,5	162,8	148,6	139,2

Jadval ma'lumotlari 2020–2024-yillar davomida aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatining bosqichma-bosqich yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, aholi jon boshiga elektr va gaz iste'molining o'sishi energiya ta'minoti barqarorligi ortib borayotganidan dalolat beradi. Ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi ulushining yildan-yilga oshishi infratuzilma modernizatsiyasi samaralarini aks ettiradi. Shu bilan birga, kommunal xizmatlardagi avariya holatlari va aholi murojaatlarining kamayib borishi xizmatlar sifati va boshqaruv samaradorligining yaxshilanganini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga elektr energiyasi iste'molining 2020-yildagi 1572,8 kVt/soatdan 2024-yilda 1779,6 kVt/soatga etgani (+13,1%) elektr ta'minotining barqarorlashuvi va maishiy texnikalardan foydalanish darajasi oshganini ko'rsatadi. Bu holat, bir tomondan, turmush sharoitlarining yaxshilanishi bilan izohlanadi, ikkinchi

tomondan esa, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish zaruratini kuchaytiradi.

Uy-joy sektorida elektr energiyasi ta'minoti hajmi 2022–2023-yillarda keskin oshib, 17,8 mlrd kVt/soatga etgan bo'lsa-da, 2024-yilda 16,3 mlrd kVt/soatga qisqargani tizimdagi optimallashtirish va yo'qotishlarni qisqartirish siyosati natijasi sifatida baholanishi mumkin. Shu bilan birga, energiya ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi muvozanat masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Aholi jon boshiga ichimlik suvi iste'molining 2020–2024-yillarda 154,2 kub metrdan 162,3 kub metrga oshgani suv ta'minoti infratuzilmasi kengayayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi ulushining 69,7 foizdan 77,2 foizga ko'tarilishi ijtimoiy ahamiyatga ega ijobiy natija hisoblanadi. Biroq suv iste'molining o'sishi bilan bir qatorda suv yo'qotishlari va ekologik barqarorlik masalalari dolzarblashmoqda. Shu sababli, suv hisobini




avtomatlashtirish va qayta foydalanish texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Gaz ta'minoti bilan qamrov darajasining 84,5 foizdan 89,8 foizga oshishi aholining energiya resurslariga bo'lgan kirish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatadi. Aholi jon boshiga tabiiy gaz iste'molining barqaror o'sishi esa isitish va ovqat tayyorlash xizmatlarining uzluksizligini ifodalaydi. Shu bilan birga, gaz iste'moli hajmining o'sishi energiya xavfsizligi va resurslardan oqilona foydalanish nuqtayi nazaridan qo'shimcha boshqaruv choralari talab etadi.

Issiqlik energiyasi bilan ta'minlangan uy-joylar ulushining 58,3 foizdan 65,1 foizga etgani markazlashgan isitish tizimlarini rekonstruksiya qilish va yangi turar joy massivlarida isitish infratuzilmasini rivojlantirish natijasi hisoblanadi. Biroq mazkur ko'rsatkichning hali 100 foizga etmagani tizimdagi hududiy nomutanosibliklar mavjudligini ko'rsatadi. Chiqindilarni yig'ish bilan qamrov darajasining 72,1 foizdan 82,9 foizga oshgani ekologik boshqaruv samaradorligining sezilarli yaxshilanganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich shahar va qishloq hududlarida sanitariya holatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. Kommunal xizmatlardagi avariya holatlari sonining 12,4 mingdan 8,9 mingga qisqarishi texnik xizmat ko'rsatish sifatining oshganini ko'rsatadi. Aholi murojaatlarining 186,3 mingdan 139,2 mingga kamayishi esa xizmatlardan qoniqish darajasi ortganini va murojaatlarni

tezkor ko'rib chiqish mexanizmlari takomillashtirishini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar davomida uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati bo'yicha deyarli barcha asosiy ko'rsatkichlarda ijobiy dinamika kuzatilmoqda. Elektr, suv, gaz va issiqlik ta'minotida qamrov va barqarorlik oshgan, avariya holatlari va aholi murojaatlari sezilarli darajada kamaygan. Shu bilan birga, resurslardan samarali foydalanish, energiya tejamlilik va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari kelgusida ustuvor yo'nalish sifatida qolmoqda.

Uy-joy kommunal xizmatlarni takomillashtirishda texnologik modernizatsiya, institutsional islohotlar va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining uyg'unligi muhimdir. Infratuzilmani yangilash va energiya tejamlilik texnologiyalarini joriy etish resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Boshqaruv tizimida shaffoflikni kuchaytirish, xizmatlar sifatini standartlashtirish va raqamli platformalar orqali hisobdorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida tarif siyosatini takomillashtirish, investitsiyalarni jalb etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur. Kadrlar salohiyatini oshirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va innovatsion boshqaruv usullarini qo'llash xizmatlar sifatini izchil yaxshilashga xizmat qiladi (1-rasm).



1-rasm. Aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini takomillashtirish usullari²

² Mavzuga oid adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



Aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini takomillashtirish usullarini tizimli va kompleks joriy etish mazkur sohaning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Tashkiliy-boshqaruv, texnologik, iqtisodiy, normativ-huquqiy, ijtimoiy hamda ekologik yo'nalishlar o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshirilgandagina kommunal xizmatlar sifati barqaror ravishda oshadi va aholining kundalik ehtiyojlari to'liqroq qondiriladi.

Zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, raqamli monitoring va "aqlli" texnologiyalardan foydalanish xizmatlar uzluksizligini ta'minlab, avariya holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Iqtisodiy asoslangan tarif siyosati va investitsiya mexanizmlarining takomillashuvi kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun zarur moliyaviy barqarorlikni yaratadi. Normativ-huquqiy bazaning mukammallashuvi esa xizmat ko'rsatish standartlari va iste'molchilar huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlaydi. Shuningdek, aholining faol ishtiroki, jamoatchilik nazorati va ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan yondashuvlar kommunal xizmatlar sifatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini takomillashtirish usullarini izchil amalga oshirish ijtimoiy farovonlikni oshirish, hududiy rivojlanishni jadallashtirish hamda mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkonini beradi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, institutsional va texnologik omillar uyg'unligi ta'minlangan sharoitda kommunal xizmatlar sifati barqaror oshadi, moliyaviy intizom mustahkamlanadi va ekologik ko'rsatkichlar yaxshilanadi. Bu esa aholi turmush darajasining ko'tarilishi va hududiy rivojlanishning jadallashuviga xizmat qiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati so'nggi yillarda izchil yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi. 2020–2024-yillar davomida elektr energiyasi, ichimlik suvi, gaz va issiqlik ta'minoti bo'yicha qamrov darajalarining oshishi hamda xizmatlar uzluksizligining kuchayishi kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, avariya holatlari va aholi murojaatlari sonining kamayib borishi xizmatlar sifati va iste'molchilarning qoniqish darajasi oshganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kommunal xizmatlar sohasida hali ham echimini kutayotgan muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, energiya tejamkorlikni keng joriy etish, hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Xizmatlar sifatini baholashda ko'p mezonli va integrallashgan yondashuvlarni qo'llash boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkonini beradi. Raqamli monitoring, "aqlli" hisoblagichlar va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarining joriy etilishi xizmatlar

uzluksizligini ta'minlash va yo'qotishlarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish tashkiliy-boshqaruv, texnologik, iqtisodiy va normativ-huquqiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligini talab etadi. Tadqiqotda olingan xulosalar ushbu sohada boshqaruv samaradorligini kuchaytirish, investitsion faollikni oshirish va aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Integrallashgan baholash tizimi va innovatsion yondashuvlarni izchil qo'llash mamlakatda uy-joy kommunal xizmatlarining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlil asosida aholi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga oid quyidagi takliflar keltirilgan:

Birinchidan, uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifatini baholashda ko'p mezonli va integrallashgan indekslar tizimini joriy etish orqali hududlar kesimida xizmatlar samaradorligini muntazam monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash;

Ikkinchidan, elektr, gaz va suv ta'minotida raqamli monitoring hamda "aqlli hisoblagichlar" tizimini keng joriy etish orqali resurslar yo'qotilishini kamaytirish va iste'mol ustidan aniq nazorat mexanizmlarini shakllantirish;

Uchinchidan, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonida energiya va suv tejamkor texnologiyalarni ustuvor joriy etish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash va ekspluatatsiya xarajatlarini qisqartirish;

To'rtinchidan, kommunal xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyatida boshqaruv shaffofligini kuchaytirish, xizmat sifati bo'yicha KPI tizimini joriy etish hamda aholi murojaatlarini ko'rib chiqishning yagona raqamli platformasini rivojlantirish;

Beshinchidan, tarif siyosatini iqtisodiy asoslangan va ijtimoiy muvozanatli shaklda takomillashtirish bilan birga, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish orqali soha rivojiga xususiy va xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish, uy-joy kommunal xizmat sifatini baholashda ko'p mezonli va integrallashgan indekslar tizimini joriy etish;

Ushbu takliflarga amal qilish orqali aholiga uy-joy kommunal xizmatlar ko'rsatish sifati sezilarli darajada oshadi, xizmatlar uzluksizligi va ishonchliligi mustahkamlanadi. Resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi, energiya va suv yo'qotishlari kamayadi, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati kuchayadi. Raqamli monitoring va KPI tizimlari boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilishni ta'minlab, xizmatlar sifatini standartlashtirish va hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga yordam beradi. Tarif siyosati va investitsion mexanizmlarning takomillashuvi moliyaviy barqarorlikni yaratadi hamda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali infratuzilmani modernizatsiya qilish imkonini kengaytiradi. Natijada, aholining hayot sifati yaxshilanadi, hududiy rivojlanish jadallashadi va mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish imkoniyati oshadi.



Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Boboqulov Sanjar Bahromqulovich, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD/ Бобокулов Санжар Бахромкулович, Самаркандский институт экономики и сервиса, Доцент кафедры «Цифровая экономика», PhD/ Bobokulov Sanjar Bahromkulovich, Samarkand Institute of Economics and Service, Associate Professor of the “Digital Economy” Department, PhD
e-mail: ferdu_www@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1882-1507

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1]. UNDP What are the Sustainable Development Goals? <https://www.undp.org/sustainable-development-goals>
- [2]. Nerovnja Tamara Nigmatovna va Obojmov Natalia Timofeevna “Possible approaches to improvement of institutional tools of the quality management system in the sphere of housing and communal services” Журнал Russian Journal of Education and Psychology 2013 <https://cyberleninka.ru/article/n/possible-approaches-to-improvement-of-institutional-tools-of-the-quality-management-system-in-the-sphere-of-housing-and-communal-services>
- [3]. Elena Agapitova, Gennady Chahkiev va Vera Gerasimovalarning “The factors to assess the quality of management of housing and communal services” Volume 106, 2017 International Science Conference SPbWOSCE-2016 “SMART City” Article Number 08075 Number of page(s) 7 Section 8 Organization and

Planning of Construction Works and Municipal Facilities DOI <https://doi.org/10.1051/mateconf/201710608075>
Published online 23 May 2017 https://www.mateconferences.org/articles/mateconf/abs/2017/20/mateconf_spbw2017_08075/mateconf_spbw2017_08075.html

[4]. Hasanov T. A. O‘zbekistonda xususiy uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2019. – 48 bet.

[5]. Дубнюк Е. Н. Модель управления жилищным фондом на основе территориального общественного самоуправления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Пенза 2013. <https://www.dissercat.com/content/model-upravleniya-zhilishchnym-fondom-na-osnove-territorialnogo-obshchestvennogo-samoupravle>

[6]. Основы функционирования ЖКХ: учебное пособие / Е. В. Султанова, Я. А. Волынчук; Владивостокский государственный университет экономики и сервиса. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2017. – 88 с. <https://portfolio.vvsu.ru/files/24A358E5-73AB-4F30-BE97-2149F42044FA.pdf>

[7]. Khasanov T. A. Housing fund as an object of management. Tashkent, 2017. TAQI. Toshkent 2022 y. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqkiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/89>

[8]. Berdiyeva Dilfuza Axatovna “Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish” Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot 2023-yil, oktyabr. № 10-son. file:///C:/Users/User/Downloads/pdf_berdiyeva-dilfuza-axatovna_jurnal-10-2023.pdf

[9]. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/industry-2>



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz